TURK VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI QAHRAMONLARINING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Aliboyeva Nozima Ikrom qizi
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Sharq filologiyasi fakulteti talabasi
nozimaaliboyeva1@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20229331

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va turk xalq ertaklaridagi qahramon obrazlarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. O‘zbek ertakchilik an’anasi qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, u xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlari, dunyoqarashi va qadriyatlari aks etadi. Tadqiqotda sehrli ertaklar qahramonlari (botirlar, aqlli qizlar, yovuz kuchlar), yordamchi obrazlar (hayvonlar, peri qizlari) va salbiy tiplar (dev, ajdarho, sehrgar kampir) asosida tahlil olib borilgan. Shuningdek, xalqaro folklor namunalaridagi o‘xshash qahramonlar — kenja botir va Keloğlan tiplari, aqlli qiz va donishmand malika, dev va yalmog‘iz kabi antagonistlarning o‘zbek va Anadolu turk ertaklarida milliy ruhda qayta talqin etilishi yoritilgan. Ertaklarda botir qahramon obrazining o‘rni alohida ta’kidlanadi, chunki u o‘zbek xalqining tarixiy jasorati, adolat va mehnatsevarlik ramzi hisoblanadi. Maqola qahramonlarning xalq ongidagi tarbiyaviy, axloqiy va estetik ahamiyatini ham ochib beradi. Natijada, o‘zbek va turk ertaklari qahramonlari xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy o‘zlik ifodasining muhim omili sifatida talqin etiladi.
Kalit so‘zlar: O‘zbek ertaklari, turk xalq ertaklari, qahramon obrazi, botir, aqlli qiz, dev, peri qizi, yalmog‘iz, Keloğlan, milliy tip, xalqaro obraz, sehrli ertak.|

Abstract: This article analyzes the similar and different aspects of the hero characters in Uzbek and Turkish folk tales. The tradition of Uzbek storytelling has ancient roots and reflects the social life, customs, worldview and values of the people. The study is based on the analysis of heroes of magical tales (heroes, clever girls, evil forces), helper characters (animals, fairy girls) and negative types (giant, dragon, witch). It also highlights how similar international folklore heroes — such as the youngest hero and Keloğlan types, clever girl and wise princess, giant and witch-like antagonists — are reinterpreted in the national spirit in Uzbek and Anatolian Turkish tales. Special emphasis is placed on the image of the heroic character in the tales, as it is considered a symbol of the historical courage, justice and diligence of the Uzbek people. The article also reveals the educational, moral and aesthetic significance of the characters in the public consciousness. As a result, the heroes of Uzbek and Turkish folk tales are interpreted as an important factor in the historical memory, spiritual heritage and national identity of the people.
Keywords: Uzbek folk tales, Turkish folk tales, hero image, hero (botir), clever girl, giant (dev), fairy girl, witch (yalmog‘iz), Keloğlan, national type, international image, magical tale.

Аннотация: В данной статье анализируются сходные и отличительные стороны образов героев в узбекских и турецких народных сказках. Традиция узбекского сказительства имеет древние корни и отражает общественную жизнь, обычаи, мировоззрение и ценности народа. В исследовании проведен анализ на основе героев волшебных сказок (батыры, умные девушки, злые силы), вспомогательных образов (животные, пери-девушки) и отрицательных типов (див, дракон, ведьма). Также освещается, как сходные герои международного фольклора — типы младшего сына-батыра и Келоглана, умная девушка и мудрая принцесса, див и ялмогуз-

подобные антагонисты — переосмысляются в национальном духе в узбекских и анатолийско-турецких сказках. Особо подчеркивается место образа героя-батыра в сказках, поскольку он считается символом исторической отваги, справедливости и трудолюбия узбекского народа. Статья также раскрывает воспитательное, нравственное и эстетическое значение образов героев в общественном сознании. В итоге герои узбекских и турецких народных сказок трактуются как важный фактор исторической памяти, духовного наследия и национальной идентичности народа**.**

Ключевые слова: узбекские сказки, турецкие народные сказки, образ героя, батыр, умная девушка, див, пери-девушка, ялмогуз, Келоглан, национальный тип, международный образ, волшебная сказка.

O‘zbekistonda ertakchilik an’anasi juda qadimiydir. Ertak aytuvchi “Ertakchilar” qishloq-qishloq, shaharcha-shaharcha yurar va ertaklar aytar edilar. Odatda to‘ylar, muhim yig‘ilishlar, bozorlar, choyxonalar kabi joylarda aytilgan ertaklar, qahramonlarining jasorati va donishmandligi bilan tinglovchini o‘ziga jalb qilardi.[1]

O‘zbek ertaklari orasida “O‘zbekchaga” o‘tgan ko‘plab jahon ertaklariga duch kelish mumkin. Boshqa millatlardan o‘tgan ertaklarni o‘zbek masalchilar aytishda, ertak qahramonlarini o‘zlarining milliy tiplari bilan almashtirib, milliy geografiyaga mos ravishda atrofni sozlab, milliy urf-odatlar qo‘shilib ketadi. Shuning uchun, o‘zbek ertaklarida xalqaro qahramon tiplari keng tarqalgan. Botir qahramon, boshqa turkiy xalqlar folklorida bo‘lgani kabi, o‘zbek folklorining eng muhim qismlaridan biridir. O‘tmishda ko‘chmanchi hayot kechirgan o‘zbeklar uchun botirlar jasorat, adolat va xalqni himoya qilish ramzi edi.

O‘zbek xalq ertaklarida tez-tez uchraydigan asosiy qahramon tiplari quyidagilardir:

Botir yigit (Kenja botir) — ko‘pincha oilaning eng kichik farzandi, kambag‘al yoki oddiy oiladan chiqqan, aql-zakovat va jasorati bilan shoh qizini oladigan yoki xalqni devlardan qutqaradigan qahramon.[2] Aqlli qiz — odatda kambag‘al oilaning qizi, shoh yoki shahzodaning qiyin savollariga javob berib, turmushga chiqadigan donishmand qiz.

Dev va Ajdarho — mamlakatga zulm qiluvchi, qizlarni talab qiladigan yovuz kuch.

Yalmog‘iz kampir (Sehrgar ayol) — inson go‘shti bilan oziqlanadigan, sehr qiluvchi yovuz antagonist.

Peri qizlari — shahzodalarga oshiq bo‘lib, yordam beradigan go‘zal va sehrli qizlar.

Gapiradigan hayvonlar (ayniqsa kanatli ot) — qahramonga yordam beruvchi donishmand yordamchilar.[3]

Anadolu turk ertaklarida ham xalqaro va milliy qahramon tiplari mavjud. Eng mashhurlari orasida Keloğlan — kal boshli, ammo aql va omad bilan har qanday qiyinchilikni yengadigan kambag‘al yigit tipi alohida o‘rin tutadi. U o‘zbekcha kenja botirga o‘xshab, oddiy odam sifatida katta muvaffaqiyatlarga erishadi.[4]

O‘xshashliklar: Ikkala xalq ertaklarida ham ijobiy qahramon aql, jasorat va adolat bilan yovuzlikni yengadi. Kenja botir / Keloğlan tipi, aqlli qiz, dev, yalmog‘iz, peri qizlari va yordamchi hayvonlar obrazlari ikkala an’anada ham uchraydi.

Farqliliklar: O‘zbek ertaklarida botir qahramon ko‘proq jismoniy jasorat va xalqni himoya qilishga urg‘u bersa, turk ertaklarida (ayniqsa Keloğlan tipida) aql, hazil va kundalik hayotiy donishmandlik ustunroq.[5]

---

[1] Жахонгиров Ғ. Болалар эртаклари. Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – 16-б.
[2] Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Тошкент: Фан, 1976. – 146-б
[3] Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. Тошкент: Ёш гвардия, 2000.
[4] Baydemir H. Özbek Halk Masalları, İnceleme Metin. Erzurum, 2004
[5] Makas Z. Türk Dünyasından Masallar. İstanbul: Kitabevi, 2000.

Qahramonlar xalq ertaklarida nafaqat sarguzasht vositasi, balki axloqiy ideallar — mehnatsevarlik, adolat, aql va yovuzlikka qarshi kurash ramzidir.

Xulosa

Turk va O‘zbek xalq ertaklari qahramonlari o‘xshashliklari orqali turkiy xalqlarning umumiy ruhini, farqlari orqali esa har birining o‘ziga xos madaniyatini namoyon etadi. Bu qahramonlar yosh avlodga jasorat, adolat va sadoqatni o‘rgatadi. Bunday tadqiqotlar ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlaydi. Kelajakda mavzuni chuqurroq o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жахонгиров Ғ. Болалар эртаклари. Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – 16-б.
2. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Тошкент: Фан, 1976. – 146-б.
3. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. Тошкент: Ёш гвардия, 2000.
4. Baydemir H. Özbek Halk Masalları, İnceleme Metin. Erzurum, 2004.
5. Makas Z. Türk Dünyasından Masallar. İstanbul: Kitabevi, 2000.